

## ESKI O‘ZBEK YOZUVI DARSLARIDA TALABALARNING OG‘ZAKI VA YOZMA SAVODXONLIGINI OSHIRISH USULLARI (ALISHER NAVOIY QO‘LYOZMALARI MISOLIDA)

**Suxanberdiyeva Sitora Sanjar qizi**

*Nizomiy nomidagi TDPU talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada eski o‘zbek yozuvi darslarida talabalarning og‘zaki va yozma savodxonligini oshirishda qo‘llaniladigan “Orfografik estafeta” metodidan foydalanish usullari haqida so‘z yuritilgan. Nazariy ma‘lumotlar Alisher Navoiy qo‘lyozmalaridan keltirilgan misollar bilan asoslangan.*

**Kalit so‘zlar:** *Alisher Navoiy, eski o‘zbek yozuvi, matn, og‘zaki nutq, yozma nutq, savodxonlik, yozma ish, matn, qirgma qalam, musahhah, an‘anaviy diktant, qo‘lyozma.*

Bizga ma‘lumki, mustaqillik yillarida xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolrimizning ilmiy, diniy va ma‘naviy merosini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, muqaddas qadamjolarini obod qilish, yosh avlodni ularning ezgu an‘analari ruhida tarbiyalash bo‘yicha ulkan ishlar amalga oshirildi va izchil davom ettirilmoqda. Keyingi paytlarda hayotimizda biz kutmagan o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. 2017-yil 24-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi. Qarorda keltirilgan sharhda tushuntirilishicha, hujjat yosh avlodni vatanparvarlik va tarixga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash hamda O‘zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo‘shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro‘-e‘tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma merosni saqlash, o‘rganish va keng targ‘ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko‘tarishga yo‘naltirilgan<sup>18</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev rahbarligida 2020- yil 30-oktabr kuni mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida o‘tkazilgan 86-sonli majlis BAYONIning 43-bandida 2021/2022-o‘quv yilidan boshlab tarix va filologiya yo‘nalishlarida ta‘lim olayotgan talabalarga tarixiy manbalardan (qo‘lyozmalar) foydalangan holda, fanlardan o‘quv mashg‘ulotlarini olib borish hamda Arab alifbosidagi qo‘lyozmalarni o‘zbek tiliga transliteratsiya qilishni yo‘lga qo‘yish vazifasi belgilangan.

Darhaqiqat, bugungi voqeligimiz, hayotning taraqqiyot oqimi o‘tmish merosimizni har tomonlama o‘rganishni taqozo etmoqda. Bu esa oldimizga o‘tmish merosimizni atroflicha egallash bilan bog‘liq muammolarni tezlikda hal etish vazifasini ko‘ndalang qo‘yadi. Ma‘naviy merosimizni o‘rganish, tadqiq etish, uning ilg‘or g‘oyalarini keng xaq ommasiga yetkazish uchun esa Arab grafikasi asosidagi eski o‘zbek yozuvini puxta o‘zlashtirish lozim.

---

<sup>18</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.-T., 2017-yil, 24 –may.

Bizga ma'lumki, xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati, ruhiy olami, ijodkorlik salohiyati, buyuk allomalarimiz tomonidan yaratilgan mumtoz asarlarimiz Arab yozuvda aks etgan. Shunday ekan, o'zbek xalqi tarixini, o'tmish adabiyotini bilish, uni chuqurroq idrok etish istagida bo'lgan har bir o'quvchi yoki talaba Arab alifbosi asosidagi eski o'zbek yozuvidan xabardor bo'lishi, mazkur yozuvning o'ziga xos nozik jihatlarini puxta o'rgangan bo'lishi zarur. Qo'lyozma kitoblarni o'qish uchun esa kishida yetarli bilim, malaka, ko'nikma va boy tajriba bo'lishi kerak.

Darhaqiqat, ta'lim tizimiga shiddat bilan kirib kelayotgan innovatsiyalar, pedagogik texnologiyalarning ta'lim beruvchi tomonidan o'zlashtirilib va qo'llanilib borilishi, o'qituvchining o'z ustida tinimsiz izlanishini talab qiladi. O'qituvchi dars jarayonida o'z o'quvchilarini fanga ijodkorlik nuqtayi nazari bilan qarashlarini tashkil qilishi, ularda izlanuvchanlik xususiyatlarini shakllantirishi va albatta, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlardan foydalangan holda darsni tashkil etishi kerak bo'ladi<sup>19</sup>.

Shu nuqtayi nazardan, biz ushbu maqolamizda eski ozbek yozuvida bitilgan qo'lyozma manbalarni o'qitishda noan'anaviy metodlardan foydalanishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik. Eski o'zbek yozuvi fanidan dars mashg'ulotlarini pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylanib bormoqda. Talabalarni darsga qiziqtirish va ularning diqqatini bir maromda ushlab turish har doim ham oson kechavermaydi. Buning uchun o'z mahoratiga suyangan holda pedagogik texnologiyalardan foydalanish yaxshi natijaga erishishga yo'l ochib beradi. Ana shu maqsadni ko'zlagan holda, o'quvchilarning qo'lyozma manbalar ustida ishlash jarayonida og'zaki va yozma nutqini oshirishda —"Orfografik estafeta" metodidan foydalanish usuli haqida to'xtalib o'tishni joiz deb topdik.

"Orfografik estafeta" o'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nlishi birinchi bosqich talabalari bilan ishlashning qiziqarli shakli bo'lib, u talabalarda mantiqiy tafakkur qobiliyatini rivojlantiruvchi guruhlarda ishlash ko'nikmasini, shuningdek xotirani rivojlantirish imkonini beradi. U intensiv o'qitish bilan bir vaqtda talabalaridagi harakat ehtiyojini ham qondirishga sharoit yaratadi. Orfografik estafeta an'anaviy aytib turib yozdirish maqsadida, an'anaviy diktantga o'xshamay erishish imkonini beradi.

Ushbu jarayonda talabalarga kerak bo'ladigan materiallar:

- a) diktant matni;
- b) qog'oz varag'i, ruchka (qirqma qalam), qizil siyohli ruchka bir kichik guruhga bittadan;
- c) g'oliblarga yutuqlar bo'lishi mumkin.

1. Mashqning borishi:

O'qituvchi talabalarni 3 ta guruhga ajratadi. Ularning har birida talabalar quyidagilarni tanlaydilar:

- a) yozuvchi (har bir guruhga bitta);
- b) yuguruvchilar (1-3 ta);
- c) musahhih (har bir guruhda bittadan).

<sup>19</sup> Musayeva M.E., Boymurodova G.T., Otoboyev A.K., Po'latova D.T. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar.-T., 2016.-B.3.

Talabalar auditoriyadan tashqarida, 10-30 metr masofada (masalan, yo‘lak oxirida) diktant matni yozilgan yozuv taxtasini osib qo‘yadi.

2. Har bir guruh o‘z joyiga ega bo‘lib, shu joyda yozuvchi va musahhih o‘tiradi.

3. Mashq o‘qituvchi ishorasi bilan boshlanadi. Guruhning vazifasi yozuv taxtasidagi matnni bexato ko‘chirib yozishdir. Yuguruvchilar yozuv taxtasi yoniga yugurib boradilar, yozuv taxtasidagi yozuvni o‘qiydilar va yozuvning mumkin qadar ko‘proq qismini eslab qolishga harakat qiladilar. Yozuvchilar yuguruvchilar eslab qolib aytgan matnlarini yozadilar. Musahhih (xatolarni tekshiruvchi) yozuvchi butun matnni yozib bo‘lgach, uni tekshiradi, xatolari bo‘lsa to‘g‘rilaydi. Tayyor matn o‘qituvchiga tanishtiriladi.

Bu metodni qo‘llash jarayonida 3 kishilik (1ta yozuvchi, 1 ta musahhih, 1-yuguruvchi) guruhlar tuziladi. O‘qituvchi guruhlarini shunday tuzishi kerakki, guruhlar darajasida katta nomutanosibliklar bo‘lmasligi kerak. Diktant matni yaxlitligicha eslab qolish oson bo‘lishi uchun avvaldan talabalarga tanish bo‘lishi kerak. Diktant matni ushuncha Alisher Navoiyning g‘azallaridan keltirilgan parchani tanlab oldik. Chunki amaliy mashg‘ulotlarda adib asarlaridan namunalar matni ustida ishlangan, talabalar tomonidan o‘zlashgan qatlamga oid so‘zlar aniqlanib, lug‘atlar tuzilgan va h.k.

Diktant matni quyidagicha bo‘lishi mumkin:

Birinchi matn:

عليشير نوي غزلاريدن

تاپماديم<sup>20</sup>

مهر كوپ كورگوزدوم اما مهربانى تاپماديم  
جان بسى قىلديم فدا آرام جاني تاپماديم  
غم بيله جانيمغا بيتتيم غمگسارى كورماديم  
هجر ايله دل خسته بولدوم دلستانى تاپماديم  
عشق ارا يوز مينگ ملامت اوقبغا بولدوم نشان  
ببر كمان ابرودا توزلوكدن نشانى تاپماديم  
كونگلوم ايچره سرو اوقدور غنچه پيكان گل تكان  
دهر باغى ايچره مونداق گلستانى تاپماديم  
حسن ملكى ايچره سينديك شاه ظالم كورماديم  
عشق كوييدا اوزومديك ناتوانى تاپماديم  
كوپ اوقودوم وامق و فرهاد و مجنون قصه سين  
اوز ايشيمديك بوالاجبراق داستانى تاپماديم  
اول زمان ايچيندا بولسون اى نوائى گرچه مين  
ببر زمان ايشقيدا محنتدين امانى تاپماديم  
طبع گنچيدن معانى خرده سين يوز قتله حيف  
كيم نثار ايتماككا شاه خرده دانى تاپماديم

Ikkinchi matn:

عليشير نوي غزلاريدن

يوزين كور قيلما غيل مژگان و خط و خاليدن ژاله  
كه بولماس خارسيز كل دودسيز اوت داغ سيز لاله  
چو مين دور تيشلارينگ هجر يدين اولدوم نى اسبغ كر چرخ

<sup>20</sup> Egamova Sh va b. Eski o‘zbek yozuvi (O‘quv qo‘llanma).-T.: “Mumtoz so‘z”, 2021. -B.163.

نجوم اشکینی یاغدورسا باشیمغه اولاکیم ژاله  
ایماس بو بیر سرشکیم قانی کیم کوز مردمی سالور  
ایتینگ آلیدا باغریمنی اوزوب پرکاله پر کاله  
لبینگ آب حیاتین خضر خطینگ نوش ایتار ساعت  
حباب اولمیش اوشاق بیر ایکی آنی د یما تبخاله  
یوزونگ دور ایلا خط چتری ارا ای خوبالار شاهی  
که بولمایدو قمر دوریدا هرکز بو کیبی هاله  
پیاله برلامی آغزیمه کوبتین قویما ای ساقی  
کی اول جوهرغه کویارکیم مناسب کیل ایرور کاله  
بو بزم اهلیمغه بیل کیم عاقبت جزبی وفالیغ یوق  
نوایی خواه لغن عیش توزکیل خواه قیل ناله

Yuguruvchilarning vazifasi matnni eslab qolish hisoblanadi (matnni qismlarga ajratish va auditoryadan bir necha marta chiqishga ruxsat etilmaydi). Musahhihlar matnning to'g'ri yozilganligini tekshirish uchun, yozuvchi yozgan diktant matnini yozuv taxtasidagi yozuvga qiyoslab tekshiradilar, xatosi bo'lsa qizil ruchka bilan to'g'rilaydilar. Ko'pincha birinchi mashq davridayoq, talabalar topshiriqni yuguruvchilar yaxshi sportchi bo'lganlar emas, balki matnni yaxshi eslab qolish qobiliyatiga ega bo'lganlar guruhi yaxshiroq bajarishini bilib oladilar (kerak bo'lsa mashq natijalarini muhokama qilishda o'qituvchi ularga savollar berib, shunday xulosaga kelishga undashi zarur)<sup>21</sup>.

Bundan tashqari guruh yozuvchilarining tartibsiz yozishlariga yo'l qo'ymaslik kerak. Ilk sinov estafetalarida mashqning davomiyligini cheklash lozim. Estafeta musobaqasini guruhlarining aksariyati ishini yakunlaganda tugallash lozim. Yana savol-javob qilish davomida talabalar matnning mazmunini ham bayon qilishi, unda ilgari surilgan g'oyani o'zlarining nuqtayi nazaridan mushohada qilishi zarur. Bu orqali esa talabaning erkin fikrlay olish qobiliyati mustahkamlanadi, unda o'zining mustaqil fikrini ko'pchilik oldida bemalol aytib berish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

Mashqlar vaqtida o'qituvchi asosiy xavfsizlik choralari ta'minlashi kerak. Ham yo'lakda, ham sinfda talabalar uning nazorati ostida bo'lishlari kerak. Estafetadan keyin foydalanishlarda o'qituvchi o'zining tajribasidan kelib chiqqan holda diktant matnini muntazam ko'paytirib, ayni bir vaqtda o'yin qoidalariga o'zgartirishlar kiritish lozim. Talabalarni guruhlarda bo'lishning usullari ko'p. Estafeta birinchi bor o'tkazilar ekan, o'qituvchi guruhlar darajasi nisbatan bir xil bo'lishiga harakat qilishi kerak. Vaqti kelib, guruhlarda talabalar soni 3 tadan ortiq bo'lganda, guruhlarini to'g'ri bo'lishning ahamiyati ortib borganda, guruhlarini qurra tashlash orqali bo'lishni kiritish mumkin. Guruhlarni mustaqil tashkil etilishiga yoki guruhni o'qituvchi tanlagan yetakchilar tomonidan tashkil etilishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Talabalarni baholash va taqdirlash usuli o'qituvchi fantaziyasi va ishtiyoqiga havola. O'qituvchi o'zining ichki imkoniyatidan kelib chiqqan holda talabalarini rag'batlantirishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, biz yuqorida fikr yuritgan metodimiz talabalarni erkin fikrlashi, yodda saqlab qolishi, mushohada yuritishi, yozma va og'zaki

<sup>21</sup> Musayeva M.E., Boymurodova G.T., Otaboyev A.K., Po'latova D.T. Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan interfaol metodlar.-T., 2016.-B.105.

savodxonligini oshirishda bahamjihatlik bilan harakat qilishga undaydi. Eski o‘zbek yozuvi darslarida “Orfografik estafeta” kabi musobaqa darslarini o‘tkazishdan maqsad talabalarning darsda olgan bilimlarini sinab ko‘rish, o‘zaro munozara- muloqot jarayonida til imkoniyatlaridan foydalana olish, nutqiy mahorat, tez va aniq fikrlash darajasini, muammoli vaziyatlardan chiqa olish malakasini baholashdan iboratdir. Musobaqa darslari talabalarda faollik, topqirlik, zukkolik fazilatlarini shakllantiradi, ularni mustaqil ijodiy fikr yuritishga odatlantiradi, zarur va foydali ko‘nikmalarni hosil qilishga yordam beradi. Yana shuni alohida aytishimiz mumkinki, ta‘limda ilg‘or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o‘quv mashg‘ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo‘llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma‘naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.-T., 2017-yil, 24 –may.
2. Abdullayev F., Shermuhammedov T., Xalilov L., Xalilov A. O‘qish kitobi. - Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1994 y.
3. Ashirboyev S., Azimov I., Rahmatov M., G‘oziev A. Eski o‘zbek tili va yozuvi praktikumi. -Toshkent: “Ijod” nashriyoti, 2006 y.
4. Is‘hoqov F. Eski o‘zbek tili va yozuvi. -Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti, 1995 y.
5. Musayeva M.E., Boymurodova G.T., Otaboyev A.K., Po‘latova D.T. Ta‘lim jarayonida qo‘llaniladigan interfaol metodlar.-T., 2016.
6. Jumaniyozov R. Eski o‘zbek yozuvi. –T., 1989.
7. Egamova Sh va b. Eski o‘zbek yozuvi (O‘quv qo‘llanma).-T.: “Mumtoz so‘z”, 2021. -309 b.